

**INSONIYATNI OTGA BO'LGAN TOTEMIK E'TIQODI. MALLA SAVDOGAR DOSTONIDA
AVAZXON VA G'IROTNING MUNOSBATI**

Achiloca Zuxra Qurbanovna

*Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti
o'zbek tili va dabiyoti yo 'nalishi magistratura
bitiruvchisi*

Annotatsiya: Maqolada inson va otning do 'stligi o 'tmish hikoyatlar va tarixiy manbalardagi ta'rifi, Malla savdogar dostonidagi Avazxon va G 'irotning bir-biriga bo 'gan samimiyligi va sadoqati to'g'risida firkalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Inson, ot, hikoyat, Qissasi Rabg 'uziy, Samoviy otlar, Anabel va Azozil, Avazxon, G'irot, do'stlik

Insoniyat dunyosida otlar bilan bog'liq totemik e'tiqodlar uzoq moziyga borib taqaladi. Hatto ko'hna rivoyatlar, tarixiy manbalarda ham otlar haqida hayratli voqealar sodir bo'lgani, inson bolasi bilan otlarning do'stona munosbatini suyloavchi hikoyatlarga duch kelishimiz beziz emas.

Ot bilan bog'liq ayrim ma'lumotlarga bayoniga to'xtalib o'tamiz.

Nosiruddin burxonuddin Rabg 'uziyning Qissasi Rabg'uziy asarida "Sulaymon alayhissalom qissalari" bo 'limida "Otlar voqeasi" shunday bayon etigan:

"Bir kuni hazrat Sulaymon alayhissalom Karvon degan tog 'da bir to 'da otlarni ko 'rdilarki, qanotlari bore di. Tutmoqchi bo 'lib edilar, uchib ketishdi. Hazrat Sulaymon alayhissalom otlarga mahliyo bo 'lib qoldilar. Bir Kovus degan devga tutib kelishni buyurdilar, u dev: "Bu mening qo 'limdan kelmaydi, samandun degan devning qo 'lidan keladi, u dev sizdan qo 'rqib, gohi daryoning ostida, gohi bulutning ustida yuradi. Uni tutishning yo 'li shuki, sizni kasal deb ovoza qilish kerak, u yerga tushadi. Shu asnoda ushlab olish mumkin", dedi. Shunday deb ovoza qildilar. U dev yerga tushgan edi, sirtmoq bilan ushlab olib keldilar. Hazrat Sulaymon alayhissalom:

– Shu otlarni tutib kelsang, azob bermasman, -dedi.

U dev rozi bo 'lib aytdiki:

– Ming botmon chog 'ir, ming botmon yung bering.

Karvon tog 'iga borib, u yerdagi buloqning ko 'ziga yungni tiqqan edi, suv to'xtadi. Ming botmon chog 'ir quyib, poylab turdilar, haligi otlar kelib, chog 'irdan ichib, mast bo 'lib qoldilar. Keyin ushlab olib, hazrat Sulaymon alayhissalom huzurlariga olib bordilar. Hazrat Sulaymon alayhissalom otlarga mahliyo bo 'lib namozi digar (asr namozi) vaqtini o 'tkazib yubordilar." [1.56-bet]

Shu afsona sabab bo 'Isa-ki xalq orasida "otni devi bor" iborasi yuradi.

Moziy manbalarda ham otlar bilan bog'liq ma'lumotlar mavjud:

“Davan davlati (Xitoy manbalarida bu o’lka shu nom bilan tilga olinadi) taxminan mil.avv.III asrda paydo bo’lgan bo’lib, Farg’ona vodiysida joylahgan.

Divan davlati Xitoy va G ’arb o ’Ikalar bilan bo ’ladigan xalqaro savdoda muhim o’rin tutgan. Ayniqsa, farg ’onaning zotdor otlari Xitoy hukmdorlarini o’ziga jalg’ etgan. Otlar naslining biriga hatto “samoviy” deb nom bergan. “Samoviy otlar” baquvvat va chopqir bo ’lgan.

“Samoviy otlar” tufayli bo’lgan urushlar quyidagicha bayon etilgan:

Qadim Farg’onada “samoviy otlar” zotidan tarqagan nasldor otlar parvarish qilingan. Rivoyatlarga ko’ra, Davan atrofid tog ‘larda yovvoyi otlar yashagan. Ularni tutish va qo’lga o’rgatishning iloji bo ’Imagan. Shuning uchun zotdor biyalarni tanlab, o ’sha tog’larga haydab yuborganlar. Biyalar va yovvoyi ayg’irlardan “samoviy” otlar tarqagan. Tyanshan xitoy tilida “samoviy tog’lar” deb tarjima qilinadi. Bu nom otlarga ham o’tgan.

Mil.avv. II asr oxirida bu naslli otlar ovozasi Xitoygacha borgan. Ularni “qanotli otlar ham deyishgan. Choganda ularning badanida ter o ’rniga qon tomchilari ko’ringan.

Xitoy yilnomasida shunday deyilgan: “Davan davlatining Ershi shahrida g’ariyib otlar mavjudligi haqida saroya xabar keladi. Imperatorning “samoviy otlar”ga ishtiyoqi ortdi: u o’zining ilohiy nasl-nasabi va zavol bilmas ekanligini odamlar ongiga singdirmoq niyatida edi. Buning uchun samoga chiqishda “samoviy otlar” qo ’shilgan aravaga muhtoj bo ’lib qoladi”.

Ammo Davan davlati bu otlarni yashiradi, Xitoy elchisiga bergisi kelmadi. Shunda imperator o’zining Che Lin pahlavonini elchi qilib, sovg’a- salomlar va oltindan yasalgan ot haykali bilan Davanga jo ’natadi. Qanday bo ’Imasin, Ershi shahri arg’umoqlarini qo’lga kiritish zarur edi.

Divan hukmdori elchi talabiga rad javobini beradi. Bu rad javobi, Davan bilan Xitoy o’rtasidagi urushga sabab bo ’ladi.

Xitoy lashkarining davanga birinchi yurishi mag ‘lubiyat bilan yakun topadi. Ikkinci yurishda Xitoy hukmdorining qo ’shinlari 60 ming nafar edi. Bu lashkarning qator-qator qurol va ozuqa ortgan ta’midotchi karvonlari bore di. Yilnomachi “butun sultanat harakatga kelgan edi” deb yozadi. Davan sari 50 nafar sarkarda qo ’shinlari bilan jo’nadi. Davlatchilik kutilmaganda bosish uchun ular jadal sur’at bilan jilishdi. Ular Eshi shahrini qamal qildi. Shaharga keladigan suv yo ’lini to ’sdi va qamalning qirqinchi kunida shaharning tashqi devorini buzdi. Divan hukmdori qal’aga berkinib oldi va sulh to’g’risida muzokalar boshlandi. Xitoyliklarga arg ’umoqlardan berishga rozilik bildirdi. Aks holda, barcha arg’umoqlarni qirg ’in qilmoqchi bo ’Idilar. Qang’ davlatidan madad yetib kelishidan cho ’chib, xitoyliklar sulhga rozi bo ’ldi.

Xitoy lashkari Ershiga bostirib kirmsadan zarur miqdordagi otlardan tovon sifatida olib, o’z vataniga qaytdi.

“Samoviy otlar” uchun bo’lib o’tgan to ’rt yillik urush shu bilan tugadi.[2.139-140-141-142-betlar]

Otlar haqida badiiy adabiyot olamida ko'pgina nasriy asarlar bitilgan. Jaumaladan, Tog 'ay Murod "Ot kishnagan oqshom", Chingiz Aytmatov "Alvido, Gulsari", Ernest Senton Tomsonning Yovvoyi yo'rg'a va hokozolar.

Adib Ne'mat Arslonning Annabel va Azozil novellasi ot haqida. Novellada ichiga shayton kirib olgan deb ruhoniylar tomonidan o'tda kuydirilgan Annabel va otlarni insonga sadoqati haqida shunday so 'zlanadi:

"Buning ustiga bir shoirning:

Otlar vafo dashtidan o 't yemadi,

Itlar vafo dargohidan ketmadi...

degan misralarni bitishi insonga sadoqat bilan xizmat otlar qismati haqida novellada so 'zlanadi va jahonga mashhur otlar ro 'xati keltiriladi

[3.5-bet]

Ana shunday alamnok tuyg 'ular bilan otlar podshosi Buroqqa murojaat qilgan jonivorlar undan ijobiy javob oldilar va bir joyda to 'planib Annabel fojiasini muhokama qilishga qaror qiladilar.

Ana shu maqsadda quyidagicha ro'yxat tuzildi.

1.Buroq- "Me'roj" kechasi payg 'ambarimiz Muhammad alayhissalomni arshi a'loga olib chiqqan ot.

2.Kontxake-Budda mingan ot.

3.Ko 'ko 'g 'Ion –Buyuk sohibqiron Amir Temur hazratlarining oti.

4.Boychibor-Alpomishning oti.

5.Bukefal-Jahonning fotihi Aleksandr makedonskiyning oti.

6.Ksanf-Gomer dostonlaridagi mashhur pahlavon Axillisning oti.

7.Raxsh-Rustami dostonning oti.

8.Diler-ulug ' rus yozuvchisi Lev Tolstoy mingan ot.

9.Tempi-Amerika yozuvchisi, Nobel mukofoti sohibi flonkerning oti.

10.Pegas-ilhom parisining oti.

11.Naxama-darbadar shoir Sulax ibn Sulayxning oti.

12.Duldul-hazrati Aliga tortiq etilgan ot.

13.G'irk 'k-Go'ro'g 'lining sevimli oti.

14.Dunan-o 'zbek xalq dostonlaridagi otlar.

15.Rossinant-g'amgin qiyofali risar Don Kixot Lamancheskiyning oti.

16.Bolevar-O.Genri qahramonlarining oti.

17.Yaxmum-chavandozlar kushandasasi deb nom olgan ot. U shoh Nu'mon al Munzirga tegishli ot [3. 5-11-b.]

Malla savdogar dostonida ham G'irot tulpori timsol qilib kiritilgan.

Ensiklopedik manbaga ko 'ra, G'irot, G'irko'k — "Go'ro'g'li" turkumi dostonlaridagi afsonaviy ot obrazi. Dostonlarda tasvirlanishi-cha, Go'ro'g'lini emizgan baytal bilan Xuroson ko'lidan chiqib kelgan ayg'ir ("suv oti")dan urg'ochi qulun tug'iladi. Go'ro'g'li bu qulunni tarbiyalab voyaga yetkazadi va uch yashar bo'lgach, Rayhon arabning tulporlaridan nasl

oladi. Natijada G'irot tug'iladi. U yetti kunlik bo'lganida, onasi o'ladi. Go'ro'g'li unga turli hayvonlar sutini berib parvarishlab, tulpor qilib yetishtiradi. G'irot — fantastik uslubda yara-tilgan obraz. U gapga tushunadi, zarur paytda qahramon (Go'ro'g'li)ga yo'l-yo'riq ko'rsatadi, ehtiyot qiladi, dushmanlarni tishlab, tepib qaytaradi. Qahramon boshiga kulfat tushganda achinadi, yig'laydi; yarador bo'lib, ustida behush qolgan egasini bexatar yerga eltadi, qo'riqlaydi, u asirga tushib qolsa, eliga xabar beradi va h.k.[5.inernet manba]

Malla savdogar dostonida ham Avazxon va G 'irot o'rtasidagi oqibat voqealar jarayonida namoyon etilib boraveradi.

Avazxon Majnun ot bilan bir maydon quvlab, ot boshida banot to 'rvasini bosib yiqildi. Avazxon ustidan tushib, oshidan to 'rvani olib otni joyidan turg 'izib yetaklab uyiga kelib, otni joyiga bog 'lab, bir fonusni yoqib, besh halqa tilla yuganni qo 'liga olib, sayisxonaga bordi. Sayislarning ustidan hatlab tablaxonaning to 'riga yetdi. G 'irotning rayini topib, avaylab sabog 'idan tutdi, no 'xtasini sayirib, besh halqa tilla yuganni otning boshiga soldi. [4. 311-b.]

Otilib necha jazoyil

Mard ishiga barcha qoyil

Otning beliga aylandi

Olti quloch ayil.

Otlar yugurar enishdan,

Duo tilar darveshdan,

Jonivorning nkami yo 'q,

Yugurishman, yelishdan.

Chin, sitqi dil yugursa,

O 'tadi qanotli qushdan,

Aytayotgan yuz boshini

Ey, xudoyim, qisma dovushdan

Ot beliga tortadi

Tilla to'qali kar pushtdan.

Ul ustidan dumni o 'rab,

Otning dumiga soladi

Chor qubbali quyushqon.

Ul ustidan tortadi,

Ot to'shiga qotog'on.

Otning belini tortadi,

To 'qa to 'qaga yetadi

Avaz bilagining kuchi to'laligidan.

G 'irot qulunligida emgan suti

Yarillab tanglayidan ketadi.

Ayil-pushtan tortqisini

Aylantirib berkitadi.

Korsonday zumrad dobilni

Egarning boshiga chatadi. [4.312-313-b.]

Ana shunda G ‘irotni sozlab, Avaz uyiga borib, toza ham tahorat qilib, ikki rakan namozini o’qib, xudoning dargohiga bag ‘ishlab, fotihani betiga tortdi.

Avazxon joyidan turib, yov-yaroq, anjomini olib, Dovut cho ‘zgan qayqi po ‘latni beliga bog’ladi. Norday qabag ‘ini uydi, bilakka kuchini jiydi, o’q o ‘tmas sovutni badaniga kiydi. Beliga bellik, qo’liga qo’llik, tushiga choroyna, boshiga dubulg ‘a, yag’riniga qalqon, qo ‘liga nayza tutib, tashqariga chiqib, G’irotning qoshiga keldi, yakka jilovini yechib oldi. G ‘irotni uch aylanib, tuyog’iga bosh urib, G’irotning manglayidan uch martaba tavof qilib, avval xudo, duyum piru peshvozlarini yod qilib, yo pirim, deb uzaniga oyoq qo’yib osilib, otning beliga rost bo’lib mindi. [4.313-b.]

Avazxon pirlarga sig’inib, G’irotni ta’zim-tavsif etib, ketib borayotgan chog’i:

Otning oyday qomati bukildi.

Jasadi kirday siqildi,

Yoyli to’pchig’i to’kildi,

Kokili burunga egildi.

G’irotning bosgan iziga,

Qo’shanot o’ylar tikildi.

Ot tuyoqdan tuproq otdi,

Tuyoqdan otgan tuprog’i

Ham bir tanob yerga yetdi.

Soy-soy kelsa irg’itdi.

Ot o’mgani terga botdi.

Adir kelsa damga tortdi, [4.314-b.]

Avazxon, talabing bo’lsa so’rayver,

Senga tozadan bildiray o’zimni.

Bog’dod mamlakatning xipcha beliman,

Otiga bir qamchini tortdi. [4.317-b] Odonani so ‘zi.

Avazxon qoldi adashib, ikki ko’zi g ‘uborlanib, guyo bir shabro’zgacha odamdan aqlii G ‘irotni yurar yo ‘lini yo ‘qotib. Bir shabro ‘zdan keyin aql-xushini jmlab olib, iskab-iskab yer yuzidan otning izini topib, bedovlar yugurar bovridan sovub, avazxon boradi g’animini quvib. Bir shabro ‘zdan keyin otning izini topib, hushyor bo’libdi. Na kema bor, na go ‘zar bor. Avazxon shu gazaga borib, darhayron bo’lib, daryordan qanday o ‘tishini o ‘ylab qolib, qilichining sopidan tutib, daryoga qarab gap aytaverdi:

Tegirmонning ravog’idan,

Qo’rqan botir qabog’idan,

Yo’l berjin, Bog’dod daryosi,

Kelma otim tuyog’idan.

Boshginangni quritarman,

Odog ‘ingni loylatarman,

Balig 'ingni chitarman,
O 'rtangdan taxi ravon yo'l solib,
Ustingdan otimni irtg 'itarman. [4.317-b.]
Bir fasl aytargan dampingni,
Sayoz yo'l ber, bog 'dodning daryosi,
Ko'rsat tubingdan qumingni.

.....

Ey, yo'l bergan, deb Avazxon
Daryoga do 'qu siyosat qildi,
Manmanlik qilgani uchun
Shunda xudodan amr bo 'ldi.
Pirlari bashorat qildi,
Lab-labidan osha berdi,
Qolipidan tosha berdi.
Atrofida ko'lmak suvni
Qayta o'ziga qo'sha berdi.

Shu vaqt daryo qolipidan nazari yuz gaz baland bo'lib jo 'nadi. Shu pilla Avazning nafasi bir oz qisilganday bo 'ldi. Manmanlik qilgani o 'ziga ma'lum bo'ldi. Avzxon otidan tushib, qaytadan toza tahorat qilib, ikki rakat namoz o'qib, avvali xudo, duyuni pirlarni yod qilib otiga mindi. Ot jilovini marvar yoliga tashlab, oltin egar boshidan ushlab, G'irot qaytadan yalingan chog'i:

Chambilda oltin saroyi,
Yaratgan qodir xudoyi,
Go'ro'g'li otam turkman elida,
Chambilbelning ulug ' shoyi.
Yolg'onchi foniy gadoyi,
Ham o'zi farzand gadoyi,
Shu daryodan irg'ir kuning
Ey, qiblagohimning bodpoyi.
Avazxon shunday degan so 'ng,
G'irotning oyday ko'ngli buzildi,
Dol G'irot tanini rostlab,
To'rt oyoq yerdan uzildi.
Shamol turadi sharillab, [4. 318-b.]
Vaqtli bog'dodga yetsam, deb
Ko'ngli ketadi hurillab.
Shunday deb layli G'irot
To'rt oyoqni bovriga bukib
Kaptarday uchdi dirillab.
Olis qoldi Chambil qo'rg'on.

Himmat bersin balogardon.

G’irotning nazari qirq gaz bo’lib

Irg’ib o’tdi daryodan.[4. 318-b]

Avazxon daryodan o’tib, G’irotning ustidan tushib, ot ustidan egar-abzalini shilib olib, sag ‘risga bir shapalab, ana to’qayning qo’rig’i, o’tiga haydab qo’yaverdi. Otning abzalini ostiga to ‘shab, Chambildan chiqqandan buyon uyqu ko ‘rmagan Avazxon daryodan o ‘tib, g ‘irotning ustidan tushib, ot ustidan egar-abzalini shilib olib, otning sag ‘risiga bir shappalab, ana to ‘qayning qo’rrig’i, o’tiga haydab qo’yaverdi. Otning abzalini ostiga to ‘shab, Chambildan chiqqandan buyon uyqu ko ‘rmagan Avazxon shu joyga kelib qoldi. Beli bo ‘shab, xurjunu egarni boshiga qo ‘yib, ustiga movut chakmanni tashlab, yonboshlab qoldi. “Jonivor G ‘irot, bu joylarda mening har bir bosgan izimga kim qancha g’animlarim bor. Men mabodo g’afplatda qolsam, beparvo bo’lmaysan”, – deb Avazxon uyquga ketdi. [4. 319-b.]

Dostonda ot bilan bog’liq syujetlar doston voqealarini uzviyligini ta’minalash bilan birga, G’irotning odam farzandiga otning sadoqatini va albatta Avzaxonning ham ham otga bo’lgan bo’lishini tasvirlanganini yaqqol ko’ramiz. Dostondagi inson va otning do’stligi tabiat va hayvonot olamiga ma’nan ezzguli bo’lishga ham undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

- 1.Nosiruddin Burxoniddin Rabg’uziy “Qissasi Rabg’uziy” asari, 56-bet, T. “Yoshlar nashriyoti uyi”, 2018-yil.
2. 6-sinf, Qadimgi dunyo tarixi, 139-140-141-142-betlar, T. “Respublika ta’lim markazi”, 2022-yil.
3. “Daryo”gazetasi, №12 (16), Ne’mat arslon, “Anabel va Azozil” novellasi, 26-mart, 2009-yl.
- 4.Baxshi Jo’ra Eshmirza o’g’li “Malla savdogar” dostoni, ziyo.uz kutubxonasi manbasi . 311-, 312, 313, 314, 317, 318, 319-betlar.
- 5.G’irot. Wikipediya lug’at, Internet manba.